

KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Idiyeva Gulchehra Izomovna,

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti.

Buxoro davlat pedagogika instituti

<https://orcid.org/0009-0000-1134-0658>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.020>

Annotatsiya: Bugun yurtimizda ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor, barcha sohalarida yaratilayotgan ulkan shart-sharoitlar, insonga berilayotgan yuksak imkoniyatlar albatta, barchani ruhlantirgan holatda ijodiy faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga, o'z ilmiy salohiyatini, iqtidorini, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishga ulkan zamin yaratib bermoqda. Barcha sohalar inson aqliy salohiyati, kreativ fikrlashi, hayotiy hodisalar, ijtimoiy muhitga nisbatan ijodiy yondashuvi, muammo va uni yechishda turli yangi g'oyalar, izlanishlar, keng dunyoqarash bilan qaratilgan holda rivojlantirilib, insonning o'ziga xos keng qobiliyatlarini namoyon etib bermoqda. Ushbu maqolada kreativlik tushunchasining mohiyati va uning olimlar tomonidan talqin etilgan turlicha yondashuvlari, nazariy asoslangan fikrlari, ijtimoiy hayot jabhalarida kreativlik qobiliyatining tutgan o'rni, shuningdek, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptirish usul va metodlari bayon etilgan. Kreativlik asosida ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi samaradorlik, ijodiy imkoniyatlar tizimi asosida hayotiy muhim jarayonlarni tashkil etish, har qanday vaziyatdan chiqish usul va yo'riqlari, kreativlikning namoyon bo'lishi, kreativ insonga xos xususiyatlar, ijodiy salohiyatga ega shaxslarning muammoni hal qilish, turli g'oyalar, yangicha usullardan foydalanishdagi noodatiy yondashuvlari ko'rsatib o'tilgan. Bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro tatqiqotlarda munosib o'rinni egallashda kritik, kreativ, mustaqil fikrlashga e'tibor qaratish, ta'limda shu tafakkur usullaridan izchil foydalana olish, zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlashda eng mustahkam tayanch bo'lib vazifasini bajarishi bu maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, muammo, yechim, motivatsiya, qobiliyat, kreativ fikrlash.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Идиева Гулчехра Изомовна,

Факультет дошкольного и начального образования, докторант по специальности теория и методика воспитания и обучения (начальное образование).

Бухарский государственный педагогический институт

АННОТАЦИЯ. Сегодня внимание, уделяемое образованию в нашей стране, прекрасные условия, созданные во всех областях, высокие возможности, предоставляемые людям, безусловно, вдохновляют каждого, создавая прекрасную почву для всестороннего развития творческой деятельности, проявления своего научного потенциала, таланта. и творческие способности. Все направления развиваются с учетом умственного потенциала человека, творческого мышления, жизненных событий, творческого подхода к социальной среде, различных новых идей, исследований, широкого мировоззрения в решении проблем и демонстрируют уникальные широкие способности человека. В данной статье описываются сущность понятия творчества и различные его подходы в интерпретации ученых, теоретически обоснованные мнения, роль творчества в аспектах общественной жизни, а также методы и методы развития творческих способностей детей. Эффективность в организации творческой деятельности на основе творчества, организация жизненных процессов на основе системы творческих возможностей, способы и ориентиры выхода из любой ситуации, проявление творческих способностей, особенности творческой личности, решение проблем личностей с

творческим потенциалом. показаны различные необычные подходы к использованию идей, новые методы. Развитие сегодняшней системы образования, ориентированное на критическое, творческое, независимое мышление, занимающее достойное место в международных исследованиях, способное последовательно использовать эти способы мышления в образовании и служащее сильнейшей опорой в подготовке современных кадров, находится в стадии развития в этой статье указано.

Ключевые слова: Креативность, творческая деятельность, творчество, проблема, решение, мотивация, способности, творческое мышление.

POSSIBILITIES OF DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ITS THEORETICAL BASICS

Idiyeva Gulchehra Izomovna,

Pre-school and primary education faculty, doctoral student, majoring in the theory and methodology of education and training (primary education).

Bukhara State Pedagogical Institute

ABSTRACT. Today, the attention given to education in our country, the great conditions created in all fields, the high opportunities given to people, certainly inspire everyone, creating a great ground for the comprehensive development of creative activities, the manifestation of one's scientific potential, talent, and creative abilities. is giving All areas are developed with a view to human mental potential, creative thinking, life events, creative approach to the social environment, various new ideas, researches, and a broad worldview in solving problems, and are showing the unique broad abilities of a person. This article describes the essence of the concept of creativity and its various approaches interpreted by scientists, theoretically based opinions, the role of creativity in the aspects of social life, as well as methods and methods of developing children's creative abilities. Efficiency in the organization of creative activities based on creativity, organization of vital processes based on the system of creative opportunities, methods and guidelines for getting out of any situation, manifestation of creativity, characteristics of a creative person, problem solving of individuals with creative potential, various unusual approaches to the use of ideas, new methods are shown. The development of today's education system, focusing on critical, creative, independent thinking in taking a worthy place in international research, being able to consistently use these ways of thinking in education, and serving as the strongest support in the training of modern personnel are in this article stated.

Keywords: Creativity, creative activity, creativity, problem, solution, motivation, ability, creative thinking.

KIRISH. O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, har tomonlama jadallik bilan rivojlanib borayotgani, Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilish boshlab berdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab ko'zga ko'rinarli tub burilishlar, innovatsion faoliyat jarayonlari bilan uyg'unlashtirildi. Darhaqiqat, Prezidentimiz "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"- deb ta'kidlab o'tdilar.

Respublikamizda "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda

fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'quvchi yoshlarning har tomonlama ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o'zlarining bor qobiliyatlarini ishga solib ta'limning barcha sohalarida sifatni tubdan oshirishlari talab etiladi.

METODLAR. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik "yaratish", "yaratuvchanlik" so'zlarini ifodalab qolmasdan inson hatti-harakatidagi o'ziga xos iqtidorni namoyon etuvchi salohiyat ko'rinish hisoblanadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlikni rivojlantirishda, ta'lim jarayonida boladagi o'ziga xos salohiyat, noyob iqtidorni yuzaga chiqarishda bir qancha usul va metodlardan foydalanish, ta'limda samaradorlikni oshiribgina qolmasdan, bolaning ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining zehni, dunyoqarashini oshirib, o'ziga uni o'rab turgan borliqdagi kelajagiga nisbatan ishonch ruhini uyg'ota oladi. Kreativlikni ta'lim jarayoniga olib kirishda bir qancha metodlar, jumladan, aqliy hujum, puzzle, bumerang, assessment, sinkveyn, tushunchalar xaritasi, muammoli vaziyat kabilardan foydalanish samarali, shu bilan birgalikda, ijodiy keng fikrlash imkoniyatini ham yuzaga chiqaradi va bolada qaysidir qobiliyatni borligini namoyon etishga xizmat qiladi. Pedagog tomonidan tashkillashtiriladigan har bir dars noodatiy, bir qolipdan yiroqlashilgan holda tashkillashtirilsa, o'quvchilarda turli g'oyalarni izlab topishga, hal qilishga, muammo bilan yuzlashganda uni samarali yo'llar bilan bartaraf etishga nisbatan ijodkorlik shakllanib, bir zaylda tafakkur qilishdan yiroqda bo'ladi hamda, o'z qobiliyatidagi ichki uyg'unlikni aniqlab oladi.

Talabalar orasida esa kreativlikni rivojlantirishning bir qancha shakllari mavjud. Ma'lumotlarni izlash, ularni tahlil etish, tezkor qarorlarda noodatiy yondashuv uslubi, ijodiylikni rivojlantirishdagi kritik, ijodiy kreativ fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishda treninglarning tashkil etilishi, tafakkur va dunyoqarashni obrazli ifodalashga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, muammoli vaziyat yaratish va uni bartaraf erishga qaratilgan keyslar bilan ishlash, jamoaviy yoki individual ish shakllari, debat, o'quv loyihalari, tadbirlar, mashhur o'z sohasida yetakchi, sport, yozuvchi, shoir, pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish, zakovat, topqirlikni oshiruvchi yutuqli o'yinlar tayyorlash, portfoliolarni shakllantirish, ta'limning barcha sohalarida to'garaklar faoliyatini tashkillashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda yetarli shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, trening, videotreninglar, taqdimotlar, viktorinalar, ijodiy loyihalash mashg'ulotlari, ekskursiyalar, ma'ruzalar, vebinar, davra suhbatlarini o'tkazish maqsadga muvofiq sanaladi.

NATIJALAR. Kreativlik - bu vazifa yoki muammo haqida yangi yoki boshqacha fikr yuritish qobiliyati yoki yangi g'oyalarni yaratish uchun tasavvurdan foydalanish qobiliyati. Kreativlik bizga murakkab muammolarni hal qilish yoki vazifalarni hal qilishning qiziqarli usullarini topish imkonini beradi. Kreativlik va ijodkorlik ma'lum ma'noda bir xil tasavvurni shakllantiradigan qobiliyatni ifodalaydi. Ijodkorlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan aqliy jarayon bo'lsa-da, u doimiy izlanishni, muayyan sohada tajriba va o'ziga xos rivojlangan sezgini talab qiladi. Ijodkorlik ongni o'zgartiradi va ijodkor odamlar ijod davrida o'zlarini o'zgartiradilar. Ijodiy davrlarda odamni oddiy dunyodan ancha yuqoriga ko'taradigan energiya shoshiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gapirganda, yurganda, fikr yuritganda, dars jarayonlaridagi faoliyat jarayonlarida, shu bilan birga muloqotga kirishganda yoki yozishda faol ijodkor bo'lishi mumkin, chunki ijodkorlik ishga olib keladigan sezgi sifati bilan bog'liq. Biroq, ijodiy bo'lish har doim ham tashqi harakatlarni talab qilmaydi.

Ijodkor bo'lish - jasoratli bo'lish, tajriba o'tkazish, tavakkal qilish va yangi narsa yaratish demakdir. Ijodkorlik ongning o'tkir qiziqish tuyg'usiga ega bo'lish qobiliyatidir va shuning uchun biron bir soha bilan chegaralanmaydi. Idrok, muammoni hal qilish, his-tuyg'u, xotira va boshqalar kabi ko'plab psixologik jarayonlar ishtirok etadi. Ijodkor odamlar ko'p qirrali bo'lishga moyil bo'lib, o'z borlig'ining turli tomonlarini uyg'unlashtirish orqali ular

hayratlanarli xarakterga ega bo'lishlari mumkin. Ularda hech kimga o'xshamagan xislatlar: ijodiy, mantiqiy, mustaqil, tanqidiy fikr yuritish, har sohani ilg'ay olishga qaratilgan boy tasavvur olami, o'z tuyg'ularini nazorat qilgan holda hissiy barqarorlik, har bir ishni bajarishga nisbatan, qat'iy intizom va tartib, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ko'plab izlanish olib borish, g'oyalar yaratish ularni sinab ko'rish hamda, muqobilini tanlash borasida bilim va tajriba shuningdek, o'zini boshqalardan ustun tutmagan holda kamtarlik namoyon bo'ladi. Kreativ insonlarda quyidagi qobiliyatlar tarkib topgan bo'ladi. (1-rasm)




1-rasm. Kreativ shaxsda mujassam xususiyatlar

Olimlarning nazariy qarashlariga asosan, kreativ inson ikkita komponentni o'z ichiga olgan motivatsiya va harakat sifatida bog'langan xulq-atvor blan bog'liq. Motivatsiya kasbiy xulq-atvorni shaxsning ichki harakatini anglatadi. Kasbiy xulq-atvorning ushbu asosiy manbasiga e'tibor qaratish har xil kasbiy rivojlanishni talab etadi. Shuning uchun, motivatsiya insonlarning hatti-harakatlariga nisbatan dinamikdir.[5.]


Ijodiy qobiliyat keng imkoniyatlar va toifalarni o'zida mujassamlashtiradi, shuning uchun ko'pchilik tadqiqotlar shu qobiliyatga ko'proq yo'naltirilgan bo'ladi. Ijodiy fikrlash bo'yicha tadqiqotlar juda ko'p bo'lib, shaxslarning aniq bir yutuqqa erishishlariga yo'l ochib berishga, imkoniyatlar doirasini kengaytirishga, shaxsni murakkab va muammoli vaziyatlarga tushib qolishdan, hayotda insonni o'z imkoniyatlarini samarali baholashga yordam beradi.

Kreativlik asosan mavjud muammoni hal qilish, samarali yechimlar izlash, ijobiy va salbiy imkoniyatlarni baholash, har qanday sharoitda yangi g'oyalar tizimini ishlab chiqish va muammoga yechim bo'la oladigan yangi usullarni topa olish kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladigan salohiyat va tafakkur ko'rinishi hisoblanadi. Shunga asosan kreativ insonlar muammoga nisbatan quyidagi vaziyatlarni samarali tashkillashtira oladi.(2-rasm)



2-rasm. Muammoni hal qilishda kreativ yondashuv

Bolaning kreativligi – bu uning asl harakatlarida mehnat jarayonida mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma, kuch, ijodkorlik, individuallik, san‘at hayot bilan uyg‘unlashgan minimal darajadagi qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik-ta’lim jarayonlarini to‘laqonli tashkillashtirishda bolaning ijodiy faoliyat jarayonida fikrlashini rivojlantirish, o‘z ichki imkoniyatlarini baholashga, ularni ko‘rsata olishga, o‘zidagi bor qobiliyatlar potensialidan imkoniyat darajasida yuqori foydalanishga, hamda, hayotda bolaga o‘z maqsadlari sari intilishga yuksak kuch bo‘lib xizmat qiladi. Ijodiy ta’limda o‘qitish asosini «maqsad - vosita - nazorat» kabi model asosida tashkillashtirish yuqoridagi fikrlarning asosiy bo‘g‘ini sifatida - mustaqil hayotiy ko‘nikmalarni, ta’lim olish jarayonida o‘z harakatlarini tartibga solish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. (3-rasm) Bu bolaning xulq-atvorida yuzaga keladigan ob’ektiv hodisalarning maqsad sari yo‘nalishiga bir hodisa sifatida ijobiy xizmat qiladi. Bolalarda kreativlikni belgilashda, har bir vaziyatga yondashuv jihatidan maqsadni aniq va to‘g‘ri qo‘ya olishi, berilayotgan yoki duch kelingan har qanday muammoli vaziyatlarni ko‘ra olish, bartaraf etishda asosiy xizmat qiladigan vosita sanaladi. Vosita esa har qanday kreativlikni amalga oshirishda foydalaniladigan istalgan turdagi zamonaviy texnologiyalar, turli xom-ashyo, buyum-anjomlar, ijodiy salohiyatimizni ko‘rsatib berishda qo‘l keladigan, ijtimoiy hayot bilan bog‘langan barcha turdagi narsalar nazarda tutiladi. Nazorat har jihatdan maqsadga qo‘yilgan ildam yo‘lni ko‘rsatib beradi.



3-rasm Ijodiy ta’limda kreativ model

MULOHAZALAR. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini

shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi” [18.]

Kreativlik tushunchasini G‘arbda ko‘pgina olimlar o‘rgangan bu muammo bugungi kunga qadar turlicha tahlil etilgan. Bulardan N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o‘rgangan bo‘lsalar, Agababyan A.R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Patti lar kreativlikning ma’naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan [6,7,8,9].

Shuningdek, A.X.Maslou kreativlikni 2 turini ajratib ko‘rsatadi:

Iste’dodning kreativligi

shaxsning o‘z - o‘zini aktuallashtirish kreativligi.

U kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi, hayot davomidagi tug‘ma qobiliyat sifatida ko‘radi, lekin hayoti davomida ma’lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketish haqida aytadi. T.A.Barsheva va Yu.A.Jigalovlar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta’lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.[4.]

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

- ☐ Kreativ fikirlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ☐ Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish
- ☐ Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- ☐ Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.[19]

Patti Drapeauning o‘qituvchilik faoliyatidagi kreativlikni baholashdagi nazariy fikriga asosan, jamiyatda yakka shaxsning, ayniqsa, pedagogning kreativ bo‘lishi, boshqalarni ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini ruhlantirib, o‘ziga xos motivatsiya beradi.

“Kreativlik” tushunchasini aniqlashga keng miqyosada o‘rgangan olimlardan biri mashhur Pol Torrens o‘zining kreativlikka bag‘ishlangan asarlarida to‘rtta kreativlik konikmasini ajratib ko‘rsatadi. Uning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, bu kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish, baholash mumkin hisoblanadi.

1. Ravonlik- Ko‘plab g‘oyalarni idrok etish ya’ni ularni o‘ylab topish ko‘nikmasi bo‘lib, ko‘p so‘ziga asoslanilgan bo‘ladi.

2. Moslashuvchanlik-noodatiy g‘oyalarni o‘ylab topgan holda, ularni o‘zgartirish, yangilik kiritish ko‘nikmasini ifodalab keladi.

3. O‘ziga xoslik- boshqalarni g‘oyasini takrorlamaydigan, o‘ziga xos, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasiga asoslanilib, noyob so‘zini o‘zida mujassamlashtiradi.

4. Yaratuvchanlik- ma’lum bir g‘oyalarni kengaytirish imkoniyatini asoslovchi ko‘nikma sanalib, qo‘shish so‘ziga asoslanadi.

Kreativlik darslarini tashkil etgan pedagoglar o‘quvchilar bilan birgalikda ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topgan jarayonlarida (o‘ziga xoslik); ularni yanada kengaytirganlarida (ishlab chiqish); boshqa izlanishlar, fikrlar orqali solishtirish taqqoslash jarayoniga ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlaganlarida (moslashuvchanlik) ko‘nikmalari bilan bevosita

yuzlashadilar va bu ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Kreativlik dunyoqarashni kengaytirish, yangi va hayajonli narsalar qilish va o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishimizga bir qadam yaqinlashtiradigan tarzda o'zimizni jalb qilishimizga imkon beradi. Xo'sh, aynan nima insonni ijodkor yoki kreativ qiladi? Ba'zi odamlar hayotda shunchaki istedod egasi bo'lib tug'ilishadimi yoki bu biz faoliyat jarayonida rivojlantira oladigan qobiliyatmi? Kreativ shaxs bo'lish uchun bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishlari zarur. Ba'zi odamlar, albatta, ushbu qobiliyatlardan tug'ilishgan bo'lishsa-da, ushbu ijodiy amaliyotlardan bir nechtasini kundalik hayotingizga qo'shib qo'yish sizning to'liq ijodiy salohiyatingizga erishishda yordam berishi mumkin.

Ko'pgina fikrlarga asosan, odamlar turli xil ijodiy fikrlash uslublari uchun o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lishlari mumkin, ammo bu imtiyozlar topshiriqdagi ichki motivatsiyaning boshlang'ich darajalariga qanchalik ta'sir qilishi hali ham aniq emas (Amabile, 1983). Shuning uchun biz har bir ijodiy fikrlash uslubi odamlarning ma'lumotni qayta ishlash va g'oyalarni yaratish uchun zarur bo'lgan kognitiv jarayonlarga qanchalik mos kelishiga qarab, kreativ topshiriq ustida ishlashdan qanchalik zavqlanishlarini taxmin qila olish mumkin. (Grigorenko va Sternberg, 1995; Sternberg, 1997). Jahonda bu kabi kreativlik tushunchasining tahlil etilishi va uni rivojlantirishdagi ko'plab izlanishlar, ko'pgina insonlar hayotida ulkan o'zgarish keltirib chiqarish omili bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, kreativlik- "yaratish", "yaratuvchanlik" bo'lib har bir shaxsning o'ziga xos qobiliyatini, hayotiy izchil vaziyatlarda tashabbuskorligini, o'zini boshqara olish, noodatiy vaziyatlardan qat'iy nazar, muammoni bartaraf etish yoki unga samarali yechim topa olish, izlanuvchanlik, o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solish, ijodiy fikrlash orqali yangi g'oyalar yaratish, yangi g'oyalar ustida ishlash ularni takomillashtirish kabi hayotiy zarur vazifalarni o'zida qamrab oladi. Ta'lim jarayonlarini tashkil etish, rejalashtirishda esa avvalo bugungi kun o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlarini bir qolipda o'tishdan cheklanib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, ijodiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, o'quvchilar orasida yangi g'oyalarni izlab topishlariga, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirgan holda kelajakka nisbatan, o'zida ishonch, yutuqlarga erishishda haqiqiy motivatsiya omili bo'lishi kerak. Bu omilni rivojlantirishda eng kuchli jihat kreativlik sanalib, yangi g'oyalarni sinab ko'rishda turtki bo'lib xizmat qiladi. Har bir insonda o'ziga xos kreativ jihatlar rivojlangan bo'lib, ba'zi insonlarda u tug'ma hisoblanib, ba'zilarida esa hayotiy tashqi omillar zahirida shakllanadi va muayyan qiyinchiliklarda tarkib topib boradi. Ko'pgina izlanishlarga asosan kreativlik inson tafakkur doirasini kengaytirishga, ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro tatqiqotlarda munosib o'rinni egallashda kritik, kreativ, mustaqil fikrlashga e'tibor qaratish, ta'limda shu tafakkur usullaridan izchil foydalana olish, zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlashda eng mustahkam tayanch vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. 2017.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi

PF-4947-son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. <https://lex.uz/>

Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285с

De Witt, P (2005). Creative Ability- a model for psychiatric occupational therapy. In Crouch, R. & Alers, V.(eds). Occupational Therapy in Psychiatry and Mental Health. 4 th Edition. London and Philadelphia: Whurr Publishers.

Drapeau Patti. (2014) Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD,. – p. 260

Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. (2007) К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., . С. 598–599.

Алейников А.Г. (2009).О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. -. - №12. - С. 29-34.

Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс.– Казань: Изд–во КГУ, 1996. – 566 с.

Вишнякова, Н.Ф. (2007) Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета. - 300 с.

Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". –T.: "Fan", 2005.

Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003

Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.

Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., Turaev A. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart,